
BAYRAM ARAFASIDA 150 O'RINLI ZAMONAVIY BOG'CHA BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi arafasida "Tog'liq" MFYdagi 27-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi va zamonaviy qiyofada foydalanishga topshirilganligi 3672 nafar aholi istiqomat qiladigan mazkur qishloq ahliga bayram sovg'asi bo'ldi.

Investisiya dasturi asosida yangi muassasa qurilishi uchun 5 milliard 200 million so'm mablag' ajratilib, bugungi kunda 150 nafar bolajonlarni o'z bag'riga qamrab olish quvvatiga ega bo'ldi. Asosiysi, 25 nafar aholi ushbu muassasada o'zlarining yangi ish o'rinlariga ega bo'lishdi.

Bundan tashqari, zamonaviy mebellar bilan jihozlangan yotoqxonalar, o'yin maydonchalari, ko'rkam va fayzli oshxona bolajonlarning doimiy xizmatida bo'ladi.

Bog'cha binosining ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektorlar rahbarlari, qishloq ahli hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi va binoda bolajonlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

2023-12-07 16:34:36